

MARUZA QURILISH ASHYOLARINING TUZILISHI VA TASNIFI

Siddiqova Madinabonu

SamDAQU magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1269833>

Kirish. Pardozbop qurilish ashyolarining xossalari va tuzilishini bir xil muhit ta'sirida o'zgarishi umumiy qonuniyatga mos keladi. Masalan, zichligi bir xil bo'lган barcha ashyolarga ta'sir etuvchi zararli muhit ularni bir tizimda to'la buza olmaydi. Agar shu ashyolar g'ovak bo'lsa, ularning buzilish jarayoni bir-biridan farq qiladi.

Qurilish ashyolarining tuzilishi bu - oddiy qattiq jinslar tarkibidagi tarqoq holatda joylashgan har xil yiriklikdagi zarrachalarning qanday tartibda bog'langanligidir. Qanday qurilish ashyosi bo'lidan qat'i nazar, u tabiiy yoki sun'iy ravishda zarrachalarning biron bog'lovchi modda vositasida o'zaro birlashishidan hosil bo'ladi. Shuningdek, ashyoning tuzilishiga undagi zarrachalar orasidagi o'zaro masofa, mayda va yirik g'ovaklar, naychalar, o'ta mayda darzlar va boshqa nuqsonlar ham kiradi.

Tuzilish ikki ko'rinishda ifodalanadi: **mikro va makro tuzilish**. Mikrotuzilish - qattiq, suyuq va gaz tarkibini tashkil etuvchi har xil o'lchamli atomlar, ionlar va molekulalarning o'zaro joylashish aloqadorligi, birikish tartibini ifodalovchi holatdagi ko'rinishidir. Atommolekulalar birlashmasi ashyoning makrotuzilishini bildiradi. Makromolekulalar, misell, kristallar va ularning atrofida o'sib chiqqan yangi modda bo'laklari, amorfli yirik zarrachalar o'zaro mahkam birlashgan holda joylashgan bo'ladi. Ashyo tarkibidagi bunday moddalarni bog'lab turuvchi murakkab ashyoviy tizim kompozisiya ashyolari deb ataladi. Fazoda o'ta to'g'ri shaklda joylashgan mikrozarrachalar kristall panjarani ifodalaydi. Panjaradagi kristall ionlari, molekulalarini o'zaro birlashtirib turuvchi bog'lovchi moddalar ham tegishli ravishda moddalar panjarasiga ega. Kristallarni o'zaro ushlab turuvchi Van-der-Vals kuchi vodorodlar aloqadorligini ta'minlovchi panjaralardan iborat. Kristall panjaralardan tashkil topgan qattiq moddalar amorf ashyolar deyiladi. Masalan, shisha amorf ashyodir. Uning atomlari va molekulalari tartibsiz joylashgan, shu sababli shisha tuzilishini o'rganish juda murakkab. Amorf ashyolarning boshqalardan farqi, uni yuqori haroratda qizdirganda erish jarayoni juda sekin kechadi, ya'ni suyuqholatga o'tmay qayishqoqquyuq bo'lib turaveradi. Bunday ashyolar barcha yo'nalishda sinalganda bir xil ko'rsatkichga ega bo'ladi. Demak, ular izotrop xususiyatga ega.

Qurilish ashyolarining mikrotuzilishi va undagi o'zgarishlar optik elektron mikroskoplar yordamida o'rganilib defferensialtermik, rentgenografik usullarda tekshiriladi va olingan

ma'lumotlar tahlil qilinadi. Zarrachalarning o'zaro qanday birikkanliga va ular asosida hosil bshlgan qattiq jism koagulyasiyali, kondesasiyali va kristalli tuzilishda bo'ladi.

**Koagulyasiyali** tuzilishda jismni yaxlit xolatda ushlab turuvchi zarrachalar o'zaro suyuq parda orqali aloqada bo'ladi. Shu sababli, zarrachalarni yopishtirib turuvchi kuch juda bo'sh, ya'ni ular Van-der-Vals kuchlari vositasida bog'lab turadi.

**Kondensasiyali** tuzilishda jismdag'i zarrachalar atom va ionlar darajasida kovalent aloqalar vositasida kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Reaksiyaning qanchalik kuchli bo'lishi, undagi atomning valentligiga va muhitiga bog'liq. Bu holda atom va ionlarni yopishtirib turuvchi kuch anchagina yuqori bo'ladi. Demak, jism ham ma'lum miqdorda mustahkamlikka egadir.

**Kristalli** tuzilishda esa jism tarkibidagi qattiq fazalar yuqori haroratda erib, keyin sovigan yoki to'yingan eritmadagi kristallar kimyoviy reaksiya natijasida o'sib mustahkam yaxlit jismga aylangan bo'ladi.

Barcha sun'iy qurilish ashyolari mayda zarrachalarning bog'lanishidan hosil bo'ladi.

Demak, biz tahlil qilayotgan uch guruhdagi ashyolar koagulyasiyali, kondensasiyali va kristalli tuzilishga ega ekan. Ularning qaysi guruhga taaluqli ekanligi bilan qurilish ashyolarining xossalari to'g'risida fikr yuritish mumkin. Ma'lumki, har bir guruhga tegishli ashyolarning g'ovakligi har xildir. Ayrim hollarda mikrotuzilishli jismlarda o'zaro tutash va har tomonlama berk g'ovaklar hamda naychalar miqdori katta hajmni tashkil etadi. Bunday g'ovaklarning kelib chiqishi ashyoni tayyorlashdagi texnologik jarayonlarga, bog'lovchi moddalarning turiga va ularning fizik-kimyoviy xossalariiga bog'liq.

**Mikrotuzilishga** xos ashyolardagi g'ovaklar ularning kirishishi natijasida paydo bo'ladi.

G'ovaklar o'lchami  $1\cdot2\cdot10^{-7}$  sm. dan oshmaydi. Oddiy ko'z bilan qaraganda ko'rinnmaydi. O'zaro tutash ochiq naychalardagi erkin suv bug'langandan keyin,  $50000\cdot10^{-7}$  sm. gacha o'lchamdag'i g'ovaklar hosil qiladi. Bularidan tashqari, ashyo tuzilishida 50-100 mk dan 2-5 mm gacha o'lchamdag'i yirik g'ovaklar ham yuzaga keladi. Bog'lovchi moddalar tarkibida suv miqdori ko'p bo'lsa, ashyo tarkibi noto'g'ri hisoblanganda yoki boshqa sabablar natijasida yirik g'ovaklar hosil bo'ladi.


Ashyolardagi g'ovaklar, naychalar va boshqa nuqsonlar oddiy ko'z bilan ko'rinsa makrotuzilish deyiladi. Sun'iy qurilish ashyolaridagi yirik g'ovaklar, bo'shliqlar yoki darzlar to'ldirgichlar o'zaro noo'rin joylashganida hamda yaxshi maydalanmagan qum yoki mineral kukuni ishlatilganda ko'zga ko'rinnadi. Agar to'ldirgich donalari o'zaro yupqa bog'lovchi modda pardasi bilan yopishib «tegib turuvchi» tuzilishli, donalar orasidagi bog'lovchi moddaning katta qatlami orqali yopishgan bo'lsa, unga «porfirli» makrotuzilish deb ataladi. Ashyoning yuzasi

silliqlansa, uning tuzilishi ko'rindi va u orqali zarrachalarning o'zaro qanday joylashganligini bilish mumkin. Zarrachalar va yirik donalarning joylashish koeffisiyenti bu - donalar orasidagi masofaning ular diametriga bo'lган nisbatidir (2.1-rasm).

**K<sub>j</sub>=(L-d)/d, bunda: K<sub>j</sub> - ashyolardagi makro va mikrozarrachalarni joylashish koeffisiyenti; L - donalar**

yoki zarrachalararo masofa; d - dona yoki zarracha diametri, (r<sub>1</sub>+r<sub>2</sub>).

Agar ashyo «porfirli» tuzilishga ega bo'lsa, qoniqarli (+), «tegib turuvchi» tuzilishga ega bo'lsa qoniqarsiz (-) miqdor deb yuritiladi. Bog'lovchilarsiz, o'zaro tegib turuvchi tuzilishdagi



ashyolarda K<sub>j</sub>=0. O'zaro zich joylashgan yirik to'ldirgichlar miqdori 74% bo'lган ashyolarda K<sub>j</sub>=0,1 bo'ladi. Ashyo tarkibida to'ldirgichlar miqdori qanchalik kam bo'lsa, qoniqarsiz joylashish koeffisiyenti shunchalik kamayadi. Demak, bunda

dona va zarrachalar orasidagi masofa katta bo'ladi.

2.1-rasm. Ashyolar tarkibidagi zarrachalarni joylashish koeffisiyentini aniqlash sxemasi.

Qurilish ashyolarining turlari shu qadar ko'pki, ularni bir tizimga tushirib, bezakli, rangli pardozbop ekanligini nazarda tutib, mahsus tasnif yordamida o'quvchiga tushuntirish lozim. Rangli pardozbop qurilish ashyolarining tasnifi quyidagi jihatlariga ko'ra: rangli hom ashyoning turlari, ularning sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarga, keyin qayerda ishlatalishiga qarab, jumladan, issiqlikni olovbardosh yaltiroqligini, rangini saqlovchi, akustik ashyolar kabi guruhlarga bo'linadi. Qurilish ashyolari tabiiy va sun'iy bo'ladi. Sun'iy qurilish ashyolarini ishlab chiqarish tegishli yo'naliishlarga bo'linadi. Masalan, sement sanoati, shisha sanoati va h.k.

Har bir pardozbop qurilish ashyosi o'zining tarkibi, kelib chiqishi va ishlab chiqarish texnologiyasiga ko'ra, yuqorida keltirilgan xossalarga ega. Ashyoning tarkibi, rangi, tuzilishi va holatining o'zgarishi bilan uning qurilish hamda texnologik xossalari ham o'zgaradi. Pardozbop qurilish ashyolarining xossalari turg'un bo'lmay, ular fizik, mexanik va kimyoviy jarayonlar ta'sirida o'zgarib turadi. Ularning xossalari sinash ishlari mahsus asbob hamda uskunalar bilan jihozlangan tajribaxonada va dala sharoitida davlat standartlarida ko'rsatilgan usullar asosida o'tkaziladi. Qurilish ashyolarini texnik xossalariiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

**Plastik ashyolar** - kuch, harorat yoki suv ta'sirida qayta ishlash xususiyatiga ega bo'lган ashyolar (gil, bitum, mis, qo'rg'oshin va h.k.).

**Elastik ashyolar** - unga ta'sir etayotgan kuch olingandan so'ng o'z shakliga qaytadigan ashyolar (rezina, po'lat va yog'och).

**Mo'rt ashyolar** - kuch ta'sir etganda o'lchami va shaklini o'zgartirmay sinish (buzilish) xossasiga ega bo'lgan ashyolar (shisha, cho'yanning ayrim turlari, g'isht va h.k.).

**Mustahkam** (granit, temir, yog'och) va mustag'kamligi juda past (chig'anoq tosh, somon, hom g'isht) ashyolar.

**Qattiq** (cho'yan, granit) va yumshoq (yog'och, bitum) ashyolar.

Suv, kislota, ishqor, issiq-sovuq hamda fizik-kimyoviy jarayon ta'siriga chidamli (klinker, plastmassalar) va chidamsiz (hom g'isht) ashyolar.

**Muhofazalovchi ashyolar** - issiqlikni kam o'tkazadigan (mineral paxta, jun, g'ovakli asbestos buyumlar), tovush yutuvchi (pemza, qatlamlı shisha-paxta, fibrolit), suvgal chidamli (bitum, ruberoid, tol) va elektrdan muhofazalovchi (rezina, chinni, marmar) xossalarga ega bo'lgan ashyolar.

### **Qurilish ashyolarining fizik xossalari**

Mahsulotlarning sifatini baholashda, uning ichki tuzilishi xossalari bilan bog'liq qonuniyatini o'rganishga doir ilmiy tekshirish ishlari mahsus tajribaxonalarida aniqlanadi.

Ashyolarning **fizik** xossalariiga quyidagilar kiradi: ashyoning haqiqiy va o'rtacha zichligi, g'ovakligi, bo'shlig'i; nam yutuvchanligi, suv shimuvchanligi, bug' va gaz o'tkazuvchanligi; issiqliqa, yuqori haroratga, alangaga, sovuqqa va radiasiyyaga chidamliligi, tok o'tkazuvchanligi, tovush yutuvchanligi, tovushdan muhofazalash va h.k.

Pardozbop ashyolar tajribaxona sharoitida chidamlilikka, deformasiyalanishga, ishqalanishga va issiqliqa bardoshlilikga, hamda boshqa xossalarga sinab ko'rildi. Qurilish ashyolari va buyumlarning xossalari o'rganishda asosiy o'lcham birliklari to'g'risida mukammal tasavvurga ega bo'lmoq kerak. Ashyolarning uzunligi, eni, qalinligi va bo'yi, mm, sm hamda metrda ifodalanadi. Yuza maydoni, ashyoning yoki buyumning kesimi,  $sm^2$  va  $m^2$  da; hajmi –  $sm^3$ , litr,  $m^3$ ; og'irligi, g, kg va tonna bilan ifodalanadi. Darslikdagi barcha o'lcham birliklari Halqaro o'lcham tizimi (SI) va standartlar talablariga mosdir.

**Zichlik.** Ashyo zichligi uning tabiiy va g'ovaksiz holatdagi hajm birliklar nisbati, uning o'rtacha zichligini ( $\rho$ ) ifodalaydi:

G'ovak va sochiluvchan ashyolarda  $\rho < 1$ , zich ashyolarda esa  $\rho = 1$  ga teng bo'ladi.

Ashyo zichligi orqali bino devorlarining issiqlikni saqlash qobiliyatini, xajmiga ko'ra og'irligi kabi ko'rsatkichlarni bilish zarur.

**G'ovaklik.** Ashyodagi mayda bo'shliqlar **g'ovaklar** deb ataladi. G'ovaklar havo, gaz yoki suv bilan to'yingan bo'ladi. Ashyodagi g'ovaklar hajmini, uning to'la hajmiga bo'lgan nisbati uning g'ovaklilagini ( $F, \%$ ) ifodalaydi:

$$F_0 = (1 - \rho_0 / \rho) \cdot 100\%$$

bunda:  $F_0$  - g'ovaklik, %;  $\rho_0$  - o'rtacha zichlik, g/sm<sup>3</sup> yoki kg/m<sup>3</sup>;  $\rho$ -hajmiy zichlik, g/sm<sup>3</sup> yoki kg/m<sup>3</sup>.

G'ovaklik va zichlik ashyoning asosiy xossalari ni ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Bu ko'rsatkichlar orqali ashyoning mustahkamligi, namlanuvchanligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, muzlashga chidamliligi va boshqa xossalari to'g'risida fikr yuritish mumkin. Ashyodagi g'ovaklar o'lchami 1-2 mm dan katta bo'lsa, u holda ular **bo'shliq** deb ataladi.

Ayrim qurilish ashyolarining g'ovakliligi quyidagi 2.1-jadvalda yoritilgan.

G'ovakliliga ko'ra ashyolar kam g'ovakli  $F < 30\%$ , o'rtacha  $F = 30-50\%$  va ko'p g'ovakli  $F > 50\%$  guruhlarga bo'linadi.

Ashyoga to'la shimdirligan suv hajmining undagi g'ovaklar hajmiga nisbati **shimilish koeffisiyenti** deb ataladi. Ashyolarning suv shimuvchanligini aniqlash uchun ularning quruq va to'la suv shimdirligan holatdagi og'irlilik farqini bilish kifoya.

2.1-jadval. Ayrim qurilish ashyolarining g'ovakliligi

Ashyo	G'ovakligi, %	Ashyo	G'ovakligi, %
Oddiy g'isht	30-40	Ohaktosh	2-35
Og'ir beton	10-35	Marmar	0,4-3
Yengil beton	30-80	Bazalt	0,6-19
Qurilish shishasi, polimer, po'lat, bitum va suv	0	Qumtosh	2-40
		Yog'och	50-75

Birinchi guruhdagi ( $F < 30\%$ ) ashyolar konstruksiyabop, oxirgisi ( $F > 50\%$ ) esa is-siqlikniga saqlovchi ashyolar sifatida ishlatiladi.

G'ovak ashyoning to'la suvga shimalishi uchun sarflangan suv og'irligi shu ashyoning quruqholatidagi og'irligiga bo'lган nisbati orqali ifodalanadi. G'ovaklarning suvga to'la qondirligan holati ashyoning **hajmiy suv shimuvchanligi** deb ataladi. Odatda, g'ovaklarning hammasi suv bilan to'lmasligi sababli ashyoning suv shimuvchanligi uning absolyut g'ovakligidan kam bo'ladi. Chunki ashyolardagi kichik (0,0001 mm dan 0,001 mm larga teng bo'lgan) g'ovaklarga normal atmosfera bosimida suv kirmaydi.

Suv shimuvchanlikni aniqlashda ashyolarni asta-sekin suvga cho'ktirish, qaynatish va bosim ostida sinash usullari bor.

Jismning havodagi namlikni o'ziga yutish xususiyati havodan namlanish (gigroskopiklik) deb ataladi. Gigroskopiklik *grekcha* so'z bo'lib, «*namlikni kuzataman*» deganidir. Qattiq va sochiluvchan ashylar atrof muhitdan namni o'ziga tortadi.

O'zgarmas bosim ostida ashyoning havoiy nam holatidagi og'irligining quritilgan holdagi og'irligiga nisbati shu ashyoning havodan namlanish xususiyatini ifodalaydi.

Ashyolarning suv shimuvchanligi bilan havoiy namlik ko'rsatkichlarining ortishi, ularning xossalari yomon ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ashyo suvga to'la to'yinganda uning mustahkamligi va chidamliligi kamayadi, zichligi, issiqlik o'tkazuvchanligi va egiluvchanligi esa ortadi.

**Suvga chidamlilik.** Ashyoga muttasil yoki vaqtি-vaqtি bilan suv ta'sir etganda, uning texnik xususiyatlari o'zgarmasa, bu ashyo suvga chidamli deb ataladi. Ayrim ashylar, masalan, hom g'isht namlansa, mustahkamligi kamayadi va o'z shaklini o'zgartiradi. Oddiy gipsdan tayyorlangan buyumlarga ham suv ta'sir etsa, ularning mustahkamligi kamayadi.

Ashyo g'ovaklarining yuzasi gaz va suv molekulalarini adsorbsiya (molekulalarni yuzaga botib kirishi) qiladi va namlanadi. Namlanish ashyoning tabiiy tarkibiga va uning tuzilishiga bog'liq. Agar ashyo, tabiatan o'ziga suv molekulalarini faol sur'atda yutsa - uni gidrofil (namlanuvchan) yoki suv molekulalarini o'zidan qochirsa - gidrofob (namlanmaydigan) deb ataladi. Ashyolarni, ayniqsa maydalangan xillarini namlanmaydigan holatda saqlash kerak. Aks holda uning namlanishi natijasida kukun bog'lovchi moddalarning xossalari yomonlashadi.

**Namlik.** Ashyoning namligi uning g'ovaklaridagi suv miqdori bilan o'lchanadi.

Ashyoning nam va quruqholatidagi og'irliklari orasidagi farqni 100 ga ko'paytirsak, uning namlik darajasini (%) aniqlagan bo'lamiz. Ashyolarning namligi ortishi bilan bog'lovchi modda zarrachalari orasidagi yopishish kuchi susayadi, binobarin, uning mustahkamligi kamayadi.

Ashyoning suvga shimdirligan yoki 100% nam holatidagi mustahkamligining ( $R_{shim}$ ) quritilgan holatidagi mustahkamligiga ( $R_{qur}$ ) nisbati yumshash koeffisiyenti ( $K_{yum}$ ) deb ataladi, ya'ni  $K_{yum}=R_{shim}/R_{qur}$ . Bu koeffisiyent 0-1 oralig'ida o'zgaradi.

### **Kyum=Rshim/Rqur**

Ashyoning yumshash koeffisiyenti 0,8 dan ortiq bo'lsa, suv va namga chidamli, undan kam bo'lsa, chidamsiz deb yuritiladi.

**Namga chidamlilik** deganda qurilish ashylarining vaqtি-vaqtি bilan nam ta'sirida buzilishiga nisbatan qarshilagini tushunmoq zarur. Nam ta'sirida buzilish jarayoni boshlangan namunaning siqilishdagi mustahkamligini  $R^n_{siq}$  etalon namunaning mustahkamligiga bo'lgan nisbati ashyoning namga chidamlilik ko'rsatgichini bildiradi.

Namga chidamliligi bo'yicha qurilish ashyolari quyidagi ko'rsatgichlarga ega bo'lishi kerak. Agar  $K_{\text{chid}}^n = 0,8-1$  bo'lsa, namga chidamlili,  $0,8 > K_{\text{chid}}^n > 0,65$  bo'lsa namga chidamliligi o'rtacha,  $K_{\text{chid}}^n < 0,65$  bo'lsa, namga chidamsiz qurilish ashyolari deb ataladi.

Hom g'isht yoki shu singari loyli qurilish ashyolariningsuv va nam ta'sirida yumshash koeffisiyenti  $K_{\text{yum}} = 0$  ga teng. Boshqalarniki esa (shisha, bitum, po'lat, chinni)  $K_{\text{yum}} = 1$  ga teng.

Nam va suv ta'sirida bo'ladigan qurilish ashyolari va inshootlarning (gidrotexnika, yo'l qurilishi, poydevorlar, xovuzlar va h.k.) yumshash koeffisiyenti 0,8 dan kam bo'lmasligi kerak.

**Suv o'tkazuvchanlik.** Qurilish ashyolari yuqori bosimida suv bo'lsao'zidan suv o'tkazishi uning **suv o'tkazuvchanligi** deb ataladi. Ashyoning bu xossasi tomyopish, suv inshootlari va xovuzlar qurishda juda katta ahamiyatga ega.

Suv o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi namunaning 1  $\text{sm}^2$  yuzasidan 1 soat davomida o'zgarmas bosim ostida o'tgan suv miqdori bilan ( $\text{sm}^3$ ) o'lchanadi. Juda zich ashyolargina, masalan, bitum, shisha, po'lat, polimer va mahsus tarkibli beton amalda suv o'tkazmaydi.

**Muzlashga chidamlilik.** Ashyoni suvga to'yingan holatida muzlatib yana qayta eritganda unda sezilarli buzilish alomatlari bo'lmasa, ya'ni mustahkamligi 25% dan, og'irligi esa 5% dan ko'p kamaymasa bu ashya muzlashga chidamlili deb hisoblanadi.

Ashyo g'ovaklaridagi suv harorati pasayishi bilan muzlaydi va hajmi 10% gacha kengayadi va buyumni mustaxkamligi va chidamligi kamayadi.

Ashyoning muzlashga chidamliligi mahsus muzlatgich kameralarida aniqlanadi.

Buning uchun sinalayotgan ashyodan tayyorlangan namunani quruq va to'la suvga shimdirilgandagi quritilib og'irligi topiladi, keyin muzlatgich (harorati  $-15^\circ\text{S}$  bo'lgan) kameraga qo'yiladi. Muzlagan ashyoni eritish uchun, uni normal haroratdagi ( $20-25^\circ\text{S}$ ) suvga botiriladi. Ashyoning turiga qarab, muzlatish va eritish uchun 4-6 soat vaqt ketadi. Namunaning 1 marta muzlatib eritilishi bir **sikl** deb ataladi.

Serg'ovak ashyolarning suv shimish darajasi 85% dan oshmasa, uni muzlashga chidamlili ashya desa bo'ladi. Shuningdek, tuzilishi zich bo'lgan, hamda har tomoni berk g'ovaklardan tashkil topgan ashyolarning muzlashga chidamliligi yuqori bo'ladi. Muzlashga chidamlilik darajasiga ko'ra qurilish ashyolarini quyidagi markalarga (sikl) bo'lisch mumkin: Muz 10, Muz15, Muz25, Muz35, Muz300, va undan ko'p.

Namunalarni 10, 15 yoki 300 siklgacha sinab, ularni siqilishga bo'lgan mustahkamligini etalon namunalarga nisbatan qanchaga kamayganligi aniqlanadi va u muzlashga chidamlilik koeffisenti -  $K_{\text{muz}}$  orqali ifodalanadi.

Muzlashga chidamli qurilish ashyolarining  $K_{muz}$  ko'rsatgichi 0,75 dan ko'p bo'lishi kerak, ya'ni  $K_{muz} \geq 0,75$ .

Tajribaxona sharoitidagi muzxonalarda sinalgan ashyolarning muzlashga chidamlilik ko'rsatgichi uch yillik tabiiy muhit ta'siriga to'g'ri keladi. Taqqoslash uchun ayrim qurilish ashyolarining muzlashga chidamlilik markasini keltiramiz: devorbop qurilish ashyolari - Muz15, Muz35; tombop asbestsement - Muz30, Muz50; yuk ko'taradigan konstruksiyalar, gidrotexnik inshootlar, yo'l qurilishi betonlari - Muz50, Muz300 va h.k.

**Issiqlik o'tkazuvchanlik.** Ashyoning bir yuzasi (sirti) issiq, ikkinchi yuzasi sovuq bo'lsa, undan issiq oqim o'taboshlaydi. Uning issiqliknini o'tkazishiga qarab issiqlik o'tkazuvchanlik darajasi topiladi. Ashyoning bu xususiyati issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti ( $\lambda$ ) orqali ifodalanadi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti haroratlar farqi ( $t_1-t_2$ )  $1^{\circ}\text{S}$  ga, qalinligi 1m, yuzasi  $1\text{ m}^2$  ga teng bo'lган namunaning bir yuzasidan ikkinchi yuzasiga o'tgan issiqlik miqdoriga teng. Ashyoning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti –  $\lambda$  tajribaxonada aniqlanadi. Issiqlik o'tkazuvchanlik, avvalo ashyoning tuzilishiga bog'liq.

Masalan, organik zinch ashyolar (polimerlar va bitumlar) uchun  $\lambda=0,25-0,35$  ga, anorganik ashyolar uchun esa  $\lambda=5,0 \text{ Vt}/(\text{m}\cdot{}^{\circ}\text{S})$  gacha bo'lishi mumkin.

Havoning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti nihoyatda kam bo'lганligi uchun ( $\lambda=0,02$ ), bu ko'rsatkich doimo ashyoning g'ovakliligiga bog'liq bo'ladi. Ashyo qancha serg'ovak bo'lsa, uning zinchligi shuncha kam bo'ladi. Binobarin, g'ovaklar havo bilan to'lganda uning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti kamayadi.

## 2.2-jadval. Ba'zi ashyolarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti

Ashyolar	O'rtacha zinchligi, $\text{kg}/\text{m}^3$	Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisienti, $\text{Vt}/(\text{m}\cdot{}^{\circ}\text{C})$
Oddiy loyg'isht	1800	0,70
Ichi kovak loyg'isht	1200	0,40
Og'ir beton	1800-2500	1,10-1,33
Yengil beton	300-1800	1,10-0,07
Qarag'ay	600	0,15 (tolasiga ko'ndalang)
Mineral paxta	200-400	0,05-0,08
Yog'och tolali plita	300	0,08-0,50
Havo	0,00129	0,02
G'ovak plastmassa	20	0,035

Qurilish ashyolari issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyentiga ko'ra quyidagi sinflarga bo'linadi: A- $\lambda=0,08$  gacha; B- $\lambda=0,8-0,12$ ; V- $\lambda=0,12-0,2$  va G- $\lambda=0,2-0,24$ . Issiqlikn ni saqlovchi konstruksiyalar va konstruksiyalarbop ashyolar uchun  $\lambda>0,21$   $Vt/(m \cdot ^\circ S)$ .

Tashqi devorlarni qurishda, tombop va qavatlararo plitalarni tayyorlashda, issiqliqvurlarni muhofaza qilishda ishlataladigan ashyolar ilmiy asosda tanlansa, respublikamiz kommunal xo'jaligi sohasida eng qimmatli energiya manbaini tejagan bo'lamic. Ashyoning g'ovaklari suvga to'lishi bilan uning issiqlik o'tkazuvchanligi ortadi. Chunki havonikiga nisbatan 25 marta ko'p.

Ba'zi qurilish ashyolarining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffisiyenti 2.2-jadvalda keltirilgan.

**Gaz o'tkazuvchanlik.** Binoning ichki va tashii tomonlarida bosimlar farqi bo'lganligi sababli, devorlar va qavatlararo plitalardan havo o'tadi. Ashyoning havo yoki gazni o'tkazish xususiyati uning gaz o'tkazuvchanlik koeffisiyenti bilan belgilanadi.

Gaz o'tkazuvchanlik koeffisiyenti  $\mu$ —devorning qalinligi  $a=1$  m, yuzasi  $S=1$   $m^2$  va uning ikki tomonidagi bosimlar farqi ( $R_1-R_2=1$  atm simob ustuniga teng bo'lgan holda  $\tau=1$  soat davomida o'tkazgan gaz miqdori bilan o'lchanadi. Ba'zi ashyolarning gaz o'tkazuvchanlik koeffisiyenti quyidagi 2.3-jadvalda keltirilgan.

### 2.3-jadval

Ashyolar	Gaz o'tkazuvchanlik koeffisiyenti- $\mu$
Oddiy gil g'isht	$0,49 \cdot 10^{-3}$
Yog'och (tolasiga ko'ndalang holatda)	$0,275 \cdot 10^{-3}$
Zich beton	$0,43 \cdot 10^{-4}$
Fibrolit	$0,47 \cdot 10^{-2}$
G'ovak tuproq	$0,366 \cdot 10^{-2}$

Gaz o'tkazuvchanlik ashyolarning fizik xususiyatlariiga, avvalo g'ovakligiga va g'ovaklarning tuzilishga bog'lik. Namlikning oshishi bilan gaz o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi kamayadi. Agar quruq betonning gaz o'tkazuvchanlik koeffisiyenti  $\mu=0,04$  ga teng bo'lsa, uni suvga to'la shimdirliganda u o'zidan gazni umuman o'tkazmaydi.

**Olovbardoshlik.** Qurilish ashyolari yonayotganda va olov manbai yo'qotilgandan so'ng ham yonaveradigan ashyolarga (yog'och, qamish, jun va boshqalar) **yonuvchi ashyolar** deb ataladi. Ba'zi yonuvchi ashyolar (smola, bitum, mum va h.k.) alanganishdan avval yumshaydi va eriydi.

Olov ta'sirida qiyin alanga oluvchi, tutaydigan yoki yonmay ko'mirga aylanuvchi, olov manbai yo'qotilganda alangalanmay so'nib qoladigan ashylolar qiyin yonuvchi ashylolar deb ataladi. Masalan, organo-mineral ashylardan: arbolit, fibrolit, sement-qirindili plita shular jumlasidandir.

#### 2.4-jadval. Ba'zi ashylarning erish harorati

Ashylar	Erish harorati, grad
Volfram	3390
Korund	1850-1920
Talk	1850-1920 1800
Bo'r	1580-1750
Shamot g'isht	1150-1300
Oddiy g'isht	658
Alyuminiy Bitum	30-110

**Yonmaydigan ashylar** o't ta'sirida alangalanmaydi, tutamaydi, ko'mir holatiga ham o'tmaydi. Bunday ashylarga tabiiy anorganik ashylar: g'isht, cherepisa, beton va boshqalar kiradi. Yonmaydigan ashylar o'z navbatida yana issiqlikka va yuqori haroratga chidamlı ashylarga bo'linadi.

Agar ashyo  $1580^{\circ}\text{S}$  dan yuqori harorat ta'sirida uzoq vaqt qolganda erimasa va deformasiyalanmasa, bunday ashyni olov ta'sir etmaydigan deb ataladi. Masalan, shamot, dinas va boshqalar.

Bino ashylari va konstruksiyalari bo'ylab tarqaladigan ovoz to'lqinlari quvvatini pasaytiruvchi va bir qismini qaytaraolish xossasiga ega bo'lgan qurilish ashylari aks-sado beruvchi (akustika) xususiyatga egadir. Tovushdan saqlovchi va tovush yutuvchi ashylar, **aks-sado beruvchi** ashylar xiliga kiradi.

Bino va inshoot devorlari va shiplari orqali o'tuvchi zarb tovushlari, havodagi va ashyo tuzilishi bo'ylab yuruvchi tovush to'lqinlari, ashyo g'ovaklari ichidagi zarrachalarni tebranma harakatga keltiradi va ularning bir qismi so'nadi. Binoni o'rab turgan ashylarning tovushdan saqlash qobiliyati desiball (dB) bilan o'lchanadi. Tovush to'lqinlari yuqori bo'lgan bino va inshootlarda, ularni quvvatini pasaytirish uchun ishlatiladigan buyumlarga tovushdan saqlovchi qurilish ashylari deb ataladi.

Tovushdan saqlovchi qurilish ashylariga mineral paxta va shisha tolali plitalar, ko'pik polimerlar va hokazolarni misol qilish mumkin.

Qurilish ashyolarining **nur o'tkazuvchanligi** deganda, to'g'ri va tarqoq nurlarni o'zidan o'tkazish qobiliyatga aytildi. Ashyo qatlamidan o'tayotgan to'g'ri va tarqoq nurlar miqdorining ashyoga tushayotgan nurlarning umumiy miqdoriga nisbati nur o'tkazuvchanlik koeffisenti deb ataladi.

Ashyolarning nur o'tkazuvchanligi nafaqat uning kimyoviy tarkibiga, balki uning yuzasini silliqligi va g'adir-budirligiga ham bog'liq. Masalan, qalinligi 2 mm li, yuzasi siliqlangan shishaga to'g'ri quyosh nuri tushsa, uning nur o'tkazish koeffisiyenti  $\eta=0,78$  ga, shisha yuzasi kamroq silliqlanganda esa u  $\eta=0,85$  ga teng bo'ladi. Shishadan o'tadigan hamma ultrabinafsha va ultraqizil nurlar ashyoning nur o'tkazuvchanligini ifodalaydi. Inson organizmi uchun foydali bo'lgan organik shishadan o'tadigan (polimetilmekrilatdan) ultrabinafsha nurlar miqdori, ko'pincha 0,9 dan oshmaydi. Qolgan shishaplastik ashyolarning nur o'tkazuvchanlik koeffisiyenti 0,75-0,8 ga teng. Silikat (oddiy) shisha oynalari o'zidan ultrabinafsha nurlarni o'tkazmaydi.

## REFERENCES

1. Dustkobilovich R. O., Laylo A. Types of modern lectures in higher education, technology of their design and organization //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 12-1 (157). – С. 41-46.
2. Рахимов О. Д., Манзаров Ю. Х., Ашурева Л. Ўзбекистон олий таълим тизимида дастлабки форсайт тадқиқотлар //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 4 (101). – С. 16-22.
3. Rakhimov O. D., Kh M. Y., Ashurova L. Initial foresight studies in the higher education system of Uzbekistan //Modern education (Uzbekistan).–2021. – 2021. – Т. 4. – №. 101. – С. 16-22.
4. Рахимов О. Д., Эшмухамедов Л. М., Ашурева Л. МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ: Рахимов Октябр Дусткабилович, Қарши муҳандислик-иктисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси профессори Эшмухамедов Латиф Маҳмаясурович, Қарши муҳандислик-иктисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси ассистенти Ашурева Лайло, Қарши муҳандислик-иктисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси ассистенти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.

5. Rakhimov O. et al. Methodology for using foresight technology in training future ecologists in Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 462. – C. 03048.
6. Rakhimov O., Ashurova L., Artikbekova F. Hydraulic transport in small livestock farms //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 274. – C. 03003.
7. Rakhimov O. D., Ashurova L. THE MAIN FACTORS AND CRITERIA OF QUALITY EDUCATION //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 31. – C. 163-169.
8. Ashurova L. METHODOLOGY OF USING TELECOMMUNICATION STUDY PROJECTS IN INDEPENDENT EDUCATION //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 17. – C. 135-140.
9. Ashurova L. ON THE TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND CREATIVE ACTIVITY IN STUDENTS //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – T. 2. – №. 23. – C. 294-298.
10. Rakhimov O. D., Sh F. S., Ashurova L. Foresight as a technology for forecasting the development of the use of digital technologies in the higher education sector of Uzbekistan //The phenomenon of market economy: from the origins to the present day. Development institutions and information technologies in innovative solutions. – 2022. – C. 167-175.
11. Husanovich S. B., Ravshanovich B. Z., Laylo A. ANALYSIS OF DEVELOPMENTAL EDUCATION MODELS //Проблемы науки. – 2020. – №. 11 (59). – C. 86-90.
12. Рахимов О. Д., Файзиева Ш. Ш., Ашуроева Л. Форсайт как технология прогнозирования развития применения цифровых технологий в секторе высшего образования Узбекистана //Феномен рыночного хозяйства: от истоков до наших дней. Институты развития и информационные технологии в инновационных решениях. – 2022. – С. 167-175.
13. Shomurotov B. H., Boyirov Z. R., Ashurova L. ANALYSIS OF DEVELOPMENTAL EDUCATION MODELS //Проблемы науки. – 2020. – №. 11. – C. 86-90.
14. Ashurova L., Uralov M. BINO VA INSHOOTLAR XAVFSIZLIGI //FANINI O ‘QITISHNING BA’ZI JIHATLARI//Interpretation and researches.–2024.
15. Ashurova L., Uralov M. «BINO VA INSHOOTLAR XAVFSIZLIGI» FANINI O ‘QITISHNING BA’ZI JIHATLARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Ashurova L. ZILZILA, KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 423-431.

17. Ashurova L. FIRES IN TECHNOSPHERE AND PRINCIPLES OF PROTECTION AGAINST THEM //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 81-86.
18. Laylo A. ISHLAB CHQARISH XONALARI HAVOSINI OPTIMALLASHTIRISH UCHUN KONDITSIONER USKUNASINING ISHINI QIYOSIY TAHLIL QILISH VA UNI MODELLASHTIRISH //Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 184-192.
